

**CLICHE, PONCIF, STÉRÉOTYPE, LIEU COMMUN, IDÉE-REÇUE:
SEMANTIK EVOLYUTSIYASI VA ADABIYOTDAGI O'ZGARISHLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14103673>

Xasanboyeva Nafisa Olimjonovna

Andijon davlat chet tillari instituti,

Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: xasanboyeva79@inbox.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada "klishe" tushunchasining majoziy ma'nodagi tarixini va shu bilan birga ko'plab fransuz lug'atlarida keltirilgan klishe terminiga sinonim sifatida olingan bir qator ma'nodosh so'zlar bilan farqlarini o'rganadi. Klishening ma'nosi, tayyor va eskirgan fikrlarni ifodalovchi, mexanik takrorlash natijasida oddiy holga kelgan ifodalar sifatida tavsiflanadi. XIX asrdan boshlab " lieux communs" (hammaga ma'lum xaqiqat) va " idées reçues" (qabul qilingan fikrlar) kabi iboralar qanday qilib salbiy konnotatsiyaga ega bo'lganini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada "poncif" va "stéréotype" tushunchalari ham ko'rib chiqilib, ularning o'ziga xosligi va konnotatsiyalari o'zaro taqqoslanadi. Maqola so'ngida, klishening va boshqa terminlarning bir-biridan farqlanishi va ularning zamonaviy tildagi o'rnini aniqlanadi va hamda muhim ijtimoiy ahamiyati ham o'z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar

tayyor formula, qotib qolgan, eskirgan, siyqasi chiqqan, steriotip, hammaga ma'lum xaqiqat, allaqachon ko'rilgan, nusxa ko'chirmoq, aniq haqiqat.

Klishe (majoziy ma'noda) tayyor formula [yoki rasm, yoki chizma, yozuv yoki jarayon], qotib qolgan, eskirgan, mexanik takrorlash tufayli oddiy holga kelgan; siyqasi chiqqanlik fikrni anglatuvchi ; le stéréotype (steriotip), le lieu commun (hammaga ma'lum xaqiqat), le déjà-vu (allaqachon ko'rilgan), le kitsch (nusxa ko'chirmoq), le poncif (siyqasi chiqqan namuna) va hattoki l'idée-reçue (aniq haqiqat) kabi sinonimlar bilan ifodalanadi, biroq ular o'rtasida bir qator farqlar mavjud bo'lib, ularni ushbu maqolamizda o'rganib chiqamiz.

Nuqtai-nazarning boshqa tomonga o'zgarishi tilda semantik va leksik evolyutsiyaga sabab bo'la oladi. Aynan XIX asrdan boshlab « lieux communs » (hammaga ma'lum xaqiqat) yoki « idées reçues » (aniq haqiqat) kabi bir qator

iboralar va shu bilan birga, ko'chma ma'noda grafik san'at yoki bosmaxonadan olingan, *le poncif* (siyqasi chiqqan namuna), XX asrda esa *le stéréotype* kabi texnik terminlar klishega oxshab ochiqchasiga kamsitish ma'nosini beruvchi salbiy konnotatsiyaga ham aylangan.

Klishedan oldin, albatta, so'zlarning siyqasi chiqqanligi, mazmunlarning oddiyligi va ularning hammaga ma'qul bo'lgan xususiyatini ifodalash uchun boshqa iboralar ham mavjud bo'lgan. Ulardan biri – «poncif» (siyqasi chiqqan na'muna) bo'lib, uning kelib chiqishi ham metaforadan iborat bo'lgan. Grafik san'atlardan kelib chiqqan ushbu eski atama, XVI asrda «rasm ustiga qo'yilib sanchiladigan yoki kesiladigan qog'ozni anglatgan va shunda uni boshqa qog'oz yoki matoga qo'yib, ustidan rangli kukun bilan ishlov berish orqali ko'paytirish mumkin bo'lgan» [1: 1386]. XIX asrda poncif «mahorat bilan, bir turga muvofiq va shartli uslub bo'yicha chizilgan rasm» sifatida ta'riflanadi [2]. 1830-yillarda bu atama sifat sifatida va 1850-yildan oldingi davrlarda esa ot sifatida ishlatiladigan bu so'z «oddiy, o'ziga xos bo'lmagan, munosib shakllarni ifodalaydigan ish»ni anglatgan [1: 1386].

Adabiyotda *poncif* mavzulashgan, qahramon yoki o'ziga xos uslubni tavsiflash, go'zal san'at sohasidan esa dramatik hamda musiqiy ibora sifatida ham ifodalangan.

P. Laruss esa *ponsif* ga "Biz o'ziga xosligini yo'qotgan va umumiy andozadan olingandek ko'rinadigan o'xshash asarlarga adabiyotda, rasm va haykaltaroshlikda yozilgani kabi poncif nomini berdik. An'ananing olijanob nomi ostida poncif uzoq vaqt rassomchilikda hukmronlik qildi; u o'zining haqiqiy obro'si, o'zlik belgisi emas, balki did, namunalarni hurmat qilish, ustalarning ta'limotiga bo'ysunish isboti sifatida ko'rilgan" [1:1386]deya ta'rif beradi.

Har qanday yangi muloqot, shuningdek, yangi atama yoki g'oya doimo g'ayrioddiy, chalkash va charchatadigan tuyiladi, biroq har qanday yangiliklarga oldin o'rganib qolamiz va shundan so'ng bizga asl haqiqatdek ko'ringan ushbu yangiliklar vaqt o'tishi bilan poncif kabi yo'q qilish sharti bilan keladi. XX asrga kelib poncif yuqorida keltirilgan sohalarda qayta-qayta ishlatilishiga qaramay bugungi kunga kelib juda kam qo'llaniladigan atamaga aylangan.

Klishe va *poncif* dan farqli o'laroq, *lieux communs* (hammaga ma'lum xaqiqat) tushunchasi juda qadimiy bo'lib, aslida kamsitish ma'nosida qo'llanilmagan.

Lieux communs, yoki *topoi*, *topoi koinoi* (topos grekcha joy. " Bir asardan boshqasiga bir asarda takrorlanuvchi vaziyat yoki mavzular, munosabatning asl maqsadi yoki stereotipik yondashuvlari. ") [3] kelib chiqishi qadimgi Yunoniston davriga, Aristotelning dialektikasi va retorikasiga borib taqaladi. Aristotel *lieux*

communs ni umumiy mulohazaning ta'siriga ega bo'lgan rasmiy dalillar toifalariga kiritadi va misol uchun quyidagi so'zlarni berishimiz mumkin: *le possible et l'impossible, le plus et le moins, les contraires, l'universel et le particulier* yaniy mumkin va mumkin emas, ko'proq va kamroq, qarama-qarshilar («Agar yaxshilik yoqimli bo'lsa, yoqimli bo'lmagan narsa yaxshilik emas; biroq agar bu oxirgi taklif haqiqat bo'lmasa, boshqa biri ham haqiqat emas») [4], *umumiy va xususiy*. Bundan ko'rinib turibdiki dastlab umumiy asosda fikrlash shakllari sifatida ko'zda tutilgan *lieux communs*, qadimiy davrda bir mazmun bilan to'ldirilgan.

O'rta asrlarga kelib, "uning ilk shakllaridan biri bo'lgan *topoi koinoi*, ma'no bilan to'ldiriladi, mustahkamlanadi va stereotiplarga aylanadi" [5]. Ernst Robert esa o'rta asr adabiyotining ba'zi mavzularni o'rganish jarayonida *topoi* ga bir oz boshqacharoq ta'rif beradi yani uni aytishicha teskari dunyo, bola va qariya yoki *locus amœnus* (lotincha: yoqimli joy, go'zal burchak) mukammal manzaraning mashhur tasviriy mavzusidir. [6]

Francis Goyet o'yg'onish davri uchun *lieux communs* ning uchta ma'nosini farqlaydi. Birinchi ma'nosi, qadimgi davrdan kelgan, bo'rtirib ko'rsatish ma'nosini berib, ba'zilar uchun qarorlar ekivalenti (yoki umumiy fikrlar) sifatida qabul qilinib;

« J'appelle ici lieux communs les sentences répétées fréquemment » yaniy «Men bu yerda hammaga ma'lum xaqiqatni tez-tez takrorlanadigan hukmlar deb atayman».

Bu nuqtai nazardan, *les lieux communs* ning yomon ma'noga ega bo'lmagan tushunchasi bilan birlashadi va bu qiymat XVII asrda ham davom etadi.

Ikkinchi ma'no, o'yg'onish davriga xos, «bo'lim sarlavhalari» yoki hatto «bob sarlavhalari» ma'nolarini anglatgan va o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan to'plamlarni, «bo'limlarga asoslangan kataloglar»ni ham ifodalagan. Nihoyat, uchinchi ma'nosi, «dalillar markazi» ma'nosini ifodalagan [7].

E. Litre o'zining «Lieu» maqolasida *les lieux communs* ning semantik evolyutsiyasini va turli ma'nolarning bir vaqtning o'zida mujasamlagan holda bir nechta ta'riflar beradi: Qadimgi notiqnlarning nutqida ishlatgan barcha dalillarini ma'lum qilishning asosiy nuqtasi bo'lgan "umumiy joy, notiqlik joyi yoki oddiygina joy". [...] Keng ma'noda esa barchaga mos keladigan umumiy xususiyatlarni ifodalagan holda "eskirgan, siyqasi chiqqan g'oyalar"[8] ekanligini aytib o'tadi. Biroq, bu ma'nolar ko'pincha bir-biriga aralashadi.

XIX asr oxirida yozilishi boshlangan, qaror, maqol, burjuacha iboralardan tashkil topgan va ularga sharhlar bera olgan Leon Bloyning "Le Dictionnaire des lieux communs" nomli asari juda kuchli munozaralarni o'z ichiga olaolgan asardir.

Bu asar Bloyga, « Il ne faut pas jouer avec le feu », « Le temps, c'est de l'argent », « Tous les goûts sont dans la nature » [9] kabi barchaga ma'lum bo'lgan iboralar orqali zamonga qarshi chiqish va o'z haqiqatini ifodalash uchun aqlga mos kelmaydigan, mantiqsiz iboralarni tanqid qilishga imkon beradi.

XVIII asrga kelib *les lieux communs* ning salbiy qiymati oshgan bo'lsa, XIX asrda esa, unga nisbatan tanqidiy qarashdan voz kechiladi. Endilikda u jamoatchilikning kengash nuqtasi emas, balki shaxs va ijtimoiy qarashlar o'rtasidagi farqni belgilaydigan suhbat bilan bog'liq bo'lib, u fikrni ifodalashning eng muhim maydoniga aylanadi.

Klishening yana bir sinonimi deya ta'riflangan « les idées reçues » iborasi XVII asrdan qo'llanilishni boshlaydi va zamonaviy davrgacha lug'atlarda salbiy ma'noda yoki « préjugés »(taxminlar), « idées toutes faites » (noto'g'ri qarashlar) sifatida talqin qilinib kelingan. G. Flaubertning "Dictionnaire des idées reçues" nomli asarida berilishicha « reçu » sifati salbiy ma'noni ifodalagan holda « admis » (qabul qilingan), « consacré » (odatga aylangan)[10] kabi ma'nolarda aks ettirilgan.

XVIII asrdan boshlab « Idées reçues » iborasi haqida qo'plab fikrlar berilishiga qaramasdan, bu sintagma hali hanuz qotma iboraga va turg'un shaklga aylana olmagan « tayyor fikrlar », « qabul qilingan fikrlar » kabi neytral ma'nolarda ifodalanib kelgan.

Biroq, *les idées reçues les lieux communs* dan farqli o'laroq siyqasi chiqqanlik yaniy qayta qo'llanilish natijasida eskirgan fikrlarni bermagan balki ularni davom etdirgan, mazmunan to'ldirgan yoki aksincha ularga qarshi chiqqan.

1820-yildan keyin « idées reçues » ibodasi adabiyotshunoslar orasida salbiy ma'no kasb eta boshlaydi, bu fikrlarning rad etilishi esa dindan chekinish deya tushunilgan.

Idées reçues cliché kabi nutqni kuchaytiruvchi nutq shakillari o'xshab o'zining o'ziga hos tomonlarini ifodalashga qodir emas, chunki bu sintagma, barqaror tushunchaga mos keladi, odatiy taxminlarni ifodalagan holda ijtimoiy axloq normalariga munosib tarzda bog'lanadi.

Bu formula XIX asrning birinchi yarmida mustahkamlanadi, lekin uning tarkibiy qismi hisoblangan o'tgan zamon sifatdoshining passiv shakliga oid hali hanuz salbiy fikrlar sezilib turardi. Ayniqsa bu iboraga nisbatan 1850 yildan keyin kuchli tanqidiy fikrlarni G. Flaubertning "Dictionnaire des idées reçues" asarida ko'rishimiz mumkun.

Ushbu asarda *les idées reçues* ning nuqtay nazarlarga bo'lgan munosabati, shuningdek mulohaza usullarini ko'rish bilan birga, u o'zida hukmlar, e'tiqodlar,

harakat va fikr bildirish usullarini o'z ichiga olgan holda, o'zlarini oddiy haqiqat va qat'iy tasdiq sifatida namoyon etadi:

« MONTRE : Une montre n'est bonne que si elle vient de Genève » - « MONTRE: Soat Jenevada kelgan taqdiridagina yaxshi. »,

« OUVRIER : Toujours honnête quand il ne fait pas d'émeutes » - « OUVRIER: Har doim halol, agar u qo'zg'olon qilmasa » [11].

Flobertning bu lug'ati jamiyatning asosiy haqiqatlarini jamlash bilan birga, o'sha davrining muammolariga o'z tanqidiy ta'riflari bilan jamiyatdagi nohaqliklarni ko'rsatmoqchi bo'lgan.

« Stéréotype » (grekcha: "stereos" - , "typos" -) [12]va « cliché » asli tipografik kelib chiqishga ega bo'lgan terminlar bo'lib, steriotipning lug'atlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, bir xil figura yoki xarakterli tasvirini "bosib chiqarish", ya'ni ko'paytirish degan ma'noni beradi. 1875 yili chop etilgan Laroussening fikriga ko'ra, « stéréotype » atamasi « art de stéréotype» ni, ya'ni harakatlanuvchi harflardan foydalanmasdan tayyorlangan va kelajakdagi bosmalar uchun saqlanadigan plitalardan qilingan bosma sana't ishini anglatadi [1:1670]. XIX asrda bu atama o'zining etimologik ma'nosini saqlagan qolgan holda san'at yo'nalishida yoki turli ustaxonalarda keng foydalanilgan, biroq F. Davin tomonidan 1835 yili Balzakning "Etudes de mœurs du XIXe siècle" nomli asarining kirish qismida keltirilishicha u ilk bor metaforik yaniy ko'chma tarzda tilga olindi[13].

XX asrning 20-yillardan boshlab, ijtimoiy fanlar uchun katta qiziqish o'yg'ota olgan, stéréotipning umumiy his qilish yoki tayyor formula (qotma iboralar) ma'nolari paydo bo'la boshlaydi. Steriotip tushunchasi birinchi bo'lib 1922 yili Amerikalik jurnalist Walter Lippmanning "Jamoat Fikri" asari orqali nutqqa olib kiriladi. U bu atama ongimizda paydo bo'lgan tasvirlarni so'zlashuv nutqiga o'zlashtirilishi orqali haqiqiyatga bo'lgan munosabatimizni o'zgarishini aytib o'tib, bu tayyor tasvirlar esa, oldindan mavjud madaniy shablonlar bo'lib, har bir inson atrofdagi haqiqatni filtrlashda foydalaniladi. Bu tasvirlar jamiyatda yashash uchun zarur bo'lib, ular bo'lmasa, shaxs to'liq sezgi oqimida qoladi va haqiqiyatni tushunish, uni kategoriyalash yoki unga ta'sir ko'rsatishi qiyin bo'lardi deya aniqlik keritadi [8].

Stéréotiplar kategoriyalash va umumlashtirish jarayoniga taalluqli bo'lganligi sababli, ular haqiqiylikni soddalashtirishi va qisqartirishi natijasida boshqalar haqida oddiy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin.

Amerikalik tadqiqotlardan ilhomlanganlar va zamonaviy sotsio-psixologlar tomonidan stéréotiplarning mezonlarini qayta ko'rib chiqilib, unga barqaror va soddalashtirilgan ijtimoiy ob'ekt (guruhi, shaxs, hodisa, voqea va boshqalar)[12]

tasviri sifatida aniqlanadi. Bu tasvir ma'lumot etishmay qolgan sharoitida, shaxsiy tajribani umumlashtirish natijasida va ko'pincha jamiyatda qabul qilingan oldindan belgilangan munosabatlar asosida shakllanadi. Biroq, stereotip terminidan doymiy foydalanish odatda bitta qat'iy guruhni tasvirni anglatadi va u salbiy nuqtai nazar bilan qarashga olib keladi.

Bundan ko'rinib turubtiki, ular stereotipni salbiy yoki neytral ma'noda qabul qilsa ham, uni individning boshqalar va o'ziga bo'lgan munosabatini yoki guruhlar va ularning individual a'zolari o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beruvchi aniq bir tushuncha sifatida belgilaydi.

Shuningdek, tilshunoslar stereotipdagi so'z bilan bog'liq soddalashtirilgan tasvirni ko'rishib, salbiy nuqtayi nazardan uni to'plangan yoki yig'lgan obraz deya talqin qilishadi. Misol uchun quyidagi iboralarni ko'rishimiz mumkun:

le vieux Juif avare (qari ayyor yahudiy),

la jeune fille pure et innocente (toza va begunoh yosh qiz),

le savant distrait (beparvo olim).

Stereotipning ko'pincha o'zining oddiyliги va soddalashtiruvchi xususiyatlari ko'rilganda uni klishe bilan tenglashtirsa bo'ladi, chunki "qotib qolgan struktura ega bo'lgan klishe va stereotiplar, siyqasi chiqqan tushuncha va fikr sifatida qabula qilinadi" [14]. Biroq ular bir biriga sinonim bo'la olmaydilar. Stereotip - bu siyasi chiqqan fikr, noodatiy goya, tub moxiyatidan va moslashuvchanlikdan mahrum bo'lgan fikrlash uslubidir. Klishe esa - stilistikaga oid bo'lga tushuncha hisoblanib, bu tayyor, harakatsiz, qotib qolgan ifodani anglatadi. Klishe stil, ifoda uslubiga tegishli bo'lsa, stereotip fikrlash uslubiga, bayon etilayotgan mazmunga taalluqlidir [15].

"Les lieux communs" va "cliché" o'rtasidagi farqni R de Gurmon quyidagicha talqin qiladi: klishe ro'yobga chiqaruvchi frazani ifodalasa, hammaga ma'lum xaqiqat esa fikrning siyqasi chiqqanligini anglatadi. Uning "Esthetique de la langue francaise" nomli asaridagi talqiniga ko'ra;

«Le type du cliché, c'est le proverbe, immuable et raide», yaniy klishe bu o'zgarmas va qotib qolgan maqol bo'lsa, hammaga ma'lum xaqiqat tilda mavjud bo'lgan g'oyaning ahmoqona va inkor etib bo'lmaydigan haqiqatni ifodalash uchun mumkin bo'lgan birikmalarni barcha shakllarini olishi mumkun[16].

Buni natijasida, klishe va unga o'xshash tushunchalarni kelib chiqish tarixini qisqacha o'rganib chiqqach, "stereotype" va "les lieux communs" terminlari asosan oddiy, o'ziga xos bo'lmagan g'oyalarga tegishli ekanligini anglasak, "cliché" ushbu g'oyaning amalga oshirilgan ifodasidir degan hulosaga kelinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Larousse du XIXe siècle, (1874).
<https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/bpt6k2053648/f1390.item.r=.langFR>.
2. Le Robert, Dictionnaire historique de la langue française, 1828.
3. <https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/topos/188479>
4. Бурунский В.М, КЛИШЕ: ЯЗЫКОВЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ, ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ТИПОЛОГИЯ (на материале французского и английского языков), Диссертация, Курск - 2009, 204 стр., 12 стр.
5. Etudes de mœurs au XIXe siècle. Scènes de la vie privée. Avec une introduction aux études de mœurs, par M. Félix DAVIN. 4 volumes.401 p.
6. Herschberg-Pierrot, A. Cliches, stereotypes et strategies discursives dans le discours de Lieuvains (Madame Bovary, II, 8) [Text] / A. Herschberg-Pierrot // Litterature, n 36.- Paris, 1979. - p. 88 -103.
7. Azoumaye, J.-C. Les stereotypes socio-litteraires du roman feuilleton de 1836 a 1848 [Text]: these de doctorat / J.-C. Azoumaye. - Limoges, 1993. - 251 p.
8. Gourmont, R. de Esthetique de la langue francaise [Text] / R. de Gourmont. - Paris: Hachette, 1900. - 340 p., 281 p.
9. Хасанбоева, Н. О. (2024). ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ С КОСВЕННЫМ ЗНАЧЕНИЕМ. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(09), 29-32.
10. Хасанбоева, Н. О. (2024). ПОБУДИТЕЛЬНО-ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ. *IQRO INDEXING*, 9(2), 318-320.
11. Хасанбоева, Н. О., & Китанина, Е. А. (2024). ДИРЕКТИВНЫЕ ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ВЫСКАЗЫВАНИЯ. *Scientific Impulse*, 2(20), 813-818.
12. Olimjonovna, X. N. (2024). RHETORICAL QUESTION AND ITS USE IN SIMPLE SENTENCES. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(27), 19-25.
13. Olimjonovna, X. N. (2024). FRANSUZ TILIDA KLISHE VA STEROTIP TUSHUNCHALARINING O'ZIGA XOS TOMONLARI. *IMRAS*, 7(1), 711-714.
14. Olimjonovna, K. N. (2023). VARIANT AND INVARIANT OF THE FRENCH PROPOSITION. *JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS*, 6(4), 252-258.
15. Mamasolievna, X. F. (2024). YUMORNING PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA VA SHAXSLARNI IJODKORLIKKA YO 'NALTIRISHDA DOMINANT VAZIFALARI. *IQRO INDEXING*, 9(2), 321-325.

16. КОРРЕФЕРЕНТ ГАПЛАРНИНГ СТРУКТУРАЛ-СЕМАНТИК ВА ФУНКЦИОНАЛ ЖИХАТЛАРИ. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 692-697.